



XORAZM VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

# XORAZM VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-MART



**2023- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalisiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi**

**66,5 %**

**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi**

**62,1 %**

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**  
**1 384,5 ming so'm**

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati**  
**106,6 %**

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**  
**2 715,8 mlrd so'm**

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati**  
**108,5 %**

2023- yil yanvar-mart


Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 715,8** mlrd so'mga yetib, taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,5** %ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-mart oylarida)





# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**2023- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2 715,8</b>	<b>108,5</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	154,7	127,3
Moliyaviy xizmatlar	637,7	120,8
Transport xizmatlari	582,3	104,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	544,7	99,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	70,0	101,7
Savdo xizmatlari	653,5	100,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	65,2	103,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	121,1	113,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	59,5	108,0
Ijara xizmatlari	43,8	96,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	112,9	105,1
Shaxsiy xizmatlar	102,7	103,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	42,9	111,1
Boshqa xizmatlar	69,5	104,4





**2023- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi Nisbatan yuqori ko'rsatkich

### Nisbatan past ko'rsatkich



**2023- yil yanvar-mart****Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2023- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **24,1** %ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **4,1** %ga yetgan.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlarining ulushi umumiy hajmda **25,6** %ni tashkil etgan. 2022- yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **4,2** %.

2023- yil yanvar-mart oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**120,8** %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**127,3** %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**111,1** %) va ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**113,8** %) qayd etildi.


**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-mart oylarida boshqa xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (**122,2** %), moliyaviy xizmatlarda (**127,1** %) o'sish kuzatilgan.



**2023- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da



■ 2022- y. yanvar-mart

■ 2023- y. yanvar-mart



**2023- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

2023- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **24,1 %**ni tashkil etdi, bu esa **653,5** mlrd so'mga to'g'ri keldi.


**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **574,6** mlrd so'mga yoki umumiy hajmning **25,6 %** ga to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

**2022- y.**  
**yanvar-mart**  
Xizmatlar hajmi  
**574,6 mlrd so'm**

O'sish sur'ati  
**108,7 %**

Ulushi  
**25,6 %**



**2023- y.**  
**yanvar-mart**  
Xizmatlar hajmi  
**653,5 mlrd so'm**

O'sish sur'ati  
**100,8 %**

Ulushi  
**24,1 %**





# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




**2023- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

2023- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **75,3 %** ini tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari tarkibi (2023- yil yanvar-mart oylarida)

**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**




**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**

**9,3 %**

**75,3 %**

**15,4 %**



**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**



**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo ulushi **75,7 %**ga yetgan.



**2023- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

*(2023- yil yanvar-mart oylarida)*



Moliyaviy xizmatlar hajmi **637,7** mlrd so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **475,6** mrd so'mga teng bo'lgan.

2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **23,5** %ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **21,2** %ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **162,1** mlrd so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **120,8** %ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-mart oylarida ularning o'sish sur'ati **127,1** % ga yetgan.



## **2023- yil yanvar-mart**

## **Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,3 %**ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **7,2 %** darajada qayd etildi.

## **Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-mart oylarida)**

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha  
xizmatlardan tashqari moliyaviy  
xizmatlar**

**90,3 %**

**Sug'urta bo'yicha  
xizmatlar**

**7,2 %**

**2,5 %**

## **Yordamchi moliyaviy faoliyat**

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **90,6 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,7 %**ga to'g'ri kelgan.





**2023- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-mart oylarida)

**2022- y.  
yanvar-mart**

**118,6  
mlrd so'm**

**119,9 %**

**5,3 %**

**2023- y.  
yanvar-mart**

**154,7  
mlrd so'm**

**127,3 %**

**5,7 %**

**Xizmatlar hajmi**

**O'sish sur'ati**

**Jami hajmdagi  
ulushi**

**Hajmning o'sishi**

**34,8 mlrd so'mga**





## 2023- yil yanvar-mart



## Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshi aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **95,1 %** ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

### 2022- y. yanvar-mart

### 2023- y. yanvar-mart



**Telekommunikatsiya xizmatlari**



**Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**



**Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**



**Noshirlik xizmatlari**

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-mart oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **94,7 %**ga yetgan.



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

93,9  
mlrd so'm

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

121,1  
mlrd so'm

2022- y.  
yanvar-  
mart



2023- y.  
yanvar-  
mart

2023- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **121,1** mlrd so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,4 %** ni tashkil etdi.

99,2 %

O'sish sur'atlari, % da

113,8 %

2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **113,8 %**ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-mart oylarida xizmatlar hajmi **93,9** mlrd so'mga teng bo'lgan. 2021- yilga nisbatan o'sish **99,2 %** darajasida qayd etilgan.

2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,  
mlrd so'm

55,0

2022- y.  
yanvar-mart

70,0

2023- y.  
yanvar-mart



O'sish  
sur'ati, % da

105,0

101,7

2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **15,0** mlrd so'mga ortdi.

15

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



**2023- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2023- y. yanvar-mart

**81,0 %**

**19,0 %**



**20,2 %**

**79,8 %**

2022- y. yanvar-mart



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar**



**Yashash bo'yicha xizmatlar**

2023- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **81,0 %** bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2022- yilda ularning ulushi **79,8 %**ni tashkil etgan.





**2023- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiya markazlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2022- y. yanvar-mart**

**2023- y. yanvar-mart**

47,5  
mlrd so'm

**Xizmatlar  
hajmi**

59,5  
mlrd so'm

111,6 %

**O'sish  
sur'ati**

108,0 %

2,1 %

**Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi**

2,2 %





**2023- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %da (2023- yil yanvar-mart oylarida)

	Umumiy hajmdagi ulushi, % da	O'sish sur'ati, 2022- yil yanvar-mart oyiga nisbatan % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>100,0</b>	<b>108,5</b>
Urganch shahri	35,8	110,9
<i>Xiva shahri</i>	4,5	113,8
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	5,5	105,0
Gurlan	5,4	112,8
Qo'shko'pir	5,2	108,9
Urganch	7,5	103,4
Hazorasp	7,3	105,0
Tuproqqal'a	2,5	118,0
Xonqa	7,1	110,7
Xiva	5,3	101,9
Shovot	5,4	106,4
Yangiariq	4,7	105,0
Yangibozor	3,8	105,0

2023- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli bo'lgan - **35,8 %** (2022- yilda **35,0 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichi Tuproqqal'a tumanida kuzatilgan – **2,5 %**.

**2023- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %da	
		2023- y.	2022- y.
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2 715,8</b>	<b>108,5</b>	<b>112,5</b>
Urganch shahar	972,0	108,6	112,9
Xiva shahar	123,7	113,8	111,4
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	149,8	105,0	117,6
Gurlan	146,7	112,8	109,9
Qo'shko'pir	141,0	108,9	112,0
Urganch	203,6	103,4	109,0
Hazorasp	197,7	105,0	105,7
Tuproqqal'a	67,8	118,0	129,1
Xonqa	191,7	110,7	109,6
Xiva	143,8	101,9	120,7
Shovot	146,4	106,4	112,4
Yangiariq	127,3	105,0	110,8
Yangibozor	104,3	105,0	113,7

*\*) Shahar va tuman bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

1 384,5  
ming so'm

Hajmning  
o'sishi

221,1 ming  
so'mga

2023- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 384,5** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,6** %ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**

2022- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 163,3** ming so'mni tashkil etgan.

106,6 %

O'sish sur'ati

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 62-224-65-16